

NOGIRONLIGI MAVJUD SHAXSLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Shoyev Alim Xalmuratovich

Guliston davlat universiteti - katta o'qituvchi

Iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining ijtimoiy nochor qatlamlaridan biri bu nogironligi mavjud shaxslar hisoblanadi. Aynan shu toifadagi shaxslarning mehnat bozorida munosib ish o'rnini topishi va bandligining ta'minlanishi bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.


Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) nogironlarni mehnat bozorida chiqarib tashlashdan kelib chiqadigan iqtisodiy yo'qotishlarni yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 3-7 foizi oralig'ida baholaydi[1]. Shu tariqa, nogironlarning munosib mehnat qilish huquqini amalga oshirish nafaqat inson huquqlari nuqtai nazaridan zarur, balki iqtisodiy rivojlanishga ham hissa qo'shadi. Nogironlarni yuk sifatida emas, balki O'zbekistonning uzluksiz rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan manba sifatida ko'rib chiqish muhimdir.

O'zbekistonda nogironlarning ishsizligi zarur darajada baholanmaydi, bu o'z navbatida rasmiy ma'lumotlarning real voqelikni to'laqonli aks ettira olmasligiga olib keladi. Nogironlarning ishsizlik darajasi hozirda rasmiy ro'yxatdan o'tgan nogironlar soni (pensiya va ijtimoiy nafaqalar olish) bilan o'lchanadi.

O'zbekistonda nogironlarning ish topish ehtimoli sog'lom fuqarolarga qaraganda to'rt baravar kam. 2019 yilda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ish bilan ta'minlangan mehnatga layoqatli aholining 30 foiziga (16-59 yoshdagi erkaklar; 16-54 yoshdagi ayollar) nisbatan 2019 yilda ro'yxatdan o'tgan mehnatga layoqatli nogironlarning atigi 7,1 foizi ish bilan ta'minlangan. Shaharlarda ro'yxatdan o'tgan nogironlarning 8,5 foizi rasman ish bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich qishloq joylarda bor yo'g'i 5,8 foizni tashkil qiladi (1-rasm).

Nogiron ayollar erkaklarga nisbatan yanada nochor holatda: mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklarning 8,9 foizi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich ayollar o'rtasida atiga 4,4% ni tashkil qiladi. Ro'yxatdan o'tgan nogironlarning deyarli yarmi (48 foiz) to'liqsiz ish kunida ishlaydi (kuniga 8 soatdan kam), bu ko'rsatkich sog'lom shaxslar o'rtasida 31 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari, ro'yxatga olingan mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlarning 87 foizi sog'lig'i yomonligi yoki og'ir nogironligi tufayli ish bilan ta'minlanmaganlar[3].

O'zbekistonda nogironlarni ishga joylashtirishni majburiy kvotalash qonunchilik hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan. 2020 yilda qabul qilingan "Nogironligi mavjud shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 7-bo'limi, 43-moddasida 20 va undan ortiq xodimga ega bo'lgan davlat muassasalari va xususiy korxonalar nogironlar uchun kamida 3 foiz ish joylarini zahiralash talab qilinadi.



1-rasm. O‘zbekistonda nogiron va nogironligi yo‘q shaxslarning ishga joylashish imkoniyatlari [2]

Ushbu kvotaga rioya qilmaydigan tashkilotlarning mansabdor shaxslari ma‘muriy javobgarlikka tortilishlari ko‘zda tutilgan. Nogironlarni kvotali ish o‘rinlari bilan ta‘minlash majburiyatini bajarmaslik birinchi marta bazaviy hisoblash miqdorining[4] 10 baravaridan 20 baravarigacha, yil davomida takroran bajarmaslik bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 30 baravarigacha jarima solishga sabab bo‘ladi[5].

Ochiq mehnat bozoridagi institutsional va qonunchilik to‘siqlaridan tashqari, nogironlar sifatli ta‘lim olish, malaka oshirish va kasb-hunar ta‘limi olish imkoniyatiga ega emaslar, bu esa ularning ish bilan ta‘minlash imkoniyatlarini yanada pasaytiradi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlar ochiq mehnat bozoriga kirish uchun yetarli ma‘lumotga ega emaslar. 2020 yilda Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyalari (TMEK) tomonidan “ishga yaroqli” deb tan olingan 162000 kishidan atigi 9200 nafari oliy ma‘lumot (5,7%), 25300 nafari o‘rta maxsus ma‘lumot (15,6%), qolganlari esa boshlang‘ich va o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lsalar, ba‘zilari esa umuman ma‘lumotga ega bo‘lishmagan[6]. Alohidalashtirilgan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda beriladigan past sifatli ta‘lim katta yoshdagi nogironlarning kasbiy va ijtimoiy ko‘nikmalari cheklanganligi sababli maktabni tugatish imkoniyatlarini jiddiy cheklab qo‘yadi. Ba‘zi ixtisoslashtirilgan kasb-hunar ta‘limi muassasalari mavjud bo‘lsada, ammo ularda mehnat bozori uchun keraksiz bo‘lgan ko‘nikmalar o‘rgatiladi. O‘rta maxsus ta‘lim muassasalarini tugatgandan so‘ng, nogironlar kasb-hunar ta‘limi borasida juda kam imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Mamlakatimizda Toshkent shahri, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida nogironlar uchun mo‘ljallangan atiga to‘rtta kasb-hunar kolleji mavjud. 2021 yilda butun mamlakat bo‘yicha 768 nafar talaba kasb-hunar maktablariga o‘qishga qabul qilingan.

Nogironlarning yuqori sifatli va zamonaviy kasb-hunar ta'limidan foydalanish imkoniyati nogironlarning ehtiyojlari va ochiq mehnat bozoriga moslashtirilgan inklyuziv kasb-hunar ta'limi dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan institutsional va qonunchilik islohotlari orqali yanada kengaytirilishi mumkin. Shuni yodda tutgan holda, quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratilishi lozim:

➤ Nogironligi mavjud shaxslar eskirgan va past malakali kasb-hunar ta'limi dasturlari bo'yicha o'qitilishi.

➤ Kasb-hunar ta'lim dasturlarining aksariyat qismi inklyuziv emasligi.

Nogironligi mavjud shaxslar eskirgan, past malakali va boshqalardan ajratilgan kasb-hunar ta'limi dasturlari bo'yicha o'qitiladi, nogironlar faqat past malakali ish joylari uchun kasb-hunar ta'limi olish imkoniyatiga egalar xolos. 2022 yilda O'zbekiston hukumatining tegishli Qarori asosida ish joylari va kasblarni nogironligi mavjud shaxslarning faoliyatiga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar tasdiqlangan.

Ushbu tavsiyalar barcha tashkilotlarda ishlaydigan nogironlarning mehnat munosabatlariga taalluqli bo'lib, unda nogironlar uchun maxsus yaratilgan ish joylarini jihozlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Xususan, ko'zi ojizlar uchun maxsus ish joylarini jihozlash tavsiya etiladi. Shuningdek, eshitish qobiliyati cheklanganlar uchun maxsus ish joylarini bajarilgan ish funktsiyasini hisobga olgan holda ovoz kuchaytiruvchi uskunalar va karnay aloqasi bo'lgan telefonlar bilan ta'minlash tavsiya etiladi. Shuningdek, normativ hujjatda nogironlar uchun tavsiya etilgan ishchi kasblar va xizmat lavozimlarining taxminiy ro'yxati (tasniflagichi), nogironlar ishlashi mumkin bo'lgan kasblar va lavozimlar ro'yxati, mehnat sharoitlari bo'yicha tavsiyalar berilgan[7].

Mavjud kasb-hunar bilim yurtlari sobiq Ittifoqdan qolgan tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatuvchi alohidalashtirilgan muassasalar hisoblanadi. Ushbu ta'lim muassasalari kasb-hunar ta'limining asosiy tizimiga kirmaydigan yopiq muassasalardir. Shuni ta'kidlash kerakki, hatto ushbu alohidalashtirilgan maktablar ham maktabni bitirganligi to'g'risida maxsus guvohnoma oladigan, o'qish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun keyingi kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishga imkon bermaydi. So'nggi yillarda nogironlar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari O'zbekiston respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimiga o'tkazildi va vazirlik faqatgina nogiron o'quvchilar uchun ta'lim berishning alohida maqomini saqlab qolgan holda, 30 ta muassasani ta'mirlash va qayta jihozlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda[8]. 2021-2025 yillarda mazkur o'quv markazlarida har yili 1000 nafar nogironligi mavjud shaxslar kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikdan o'tishini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Bizning fikrimizcha nogironligi mavjud shaxslarning ochiq mehnat bozoriga erkin kirib borishi uchun quyidagi asosiy jihatlar ta'minlanishi lozim:

• Nogironlarning ochiq mehnat bozoriga doimiy kirishini ta'minlash borasida nogironlikni baholash tizimini isloh qilish.

- Mehnat huquqlari to'g'risida huquqiy himoya va xabardorlikni kuchaytirish va nogironlik asosida kamsitishni ta'qiqlash.

- Nogironlarni ish bilan ta'minlash kvotalariga rioya etilishini nazorat qilish va ta'minlash.

- Ish beruvchilarni davlat imtiyozlari to'g'risida xabardorligini oshirish orqali ish joylarida qulaylik va inklyuzivlikni ta'minlashga undash.

Bu o'z navbatida jamiyatimiz teng huquqli a'zolari hisoblanmish nogironligi mavjud shaxslarning munosib ish o'rinlarini topishi va bandligi ta'minlanishi orqali turmush farovonligini oshirilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. MOT, 2020 z. «Цена исключения: экономические последствия исключения людей с инвалидностью из мира труда», https://www.ilo.org/skills/pubs/WCMS_149529/lang-en/index.htm.

2. [https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2020-06/Brief report UN ru UNColor%20RUS 0.pdf](https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2020-06/Brief%20report%20UN%20ru%20UNCOLOR%20RUS%200.pdf)

3. [https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2020-06/Brief report UN ru UNColor%20RUS 0.pdf](https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2020-06/Brief%20report%20UN%20ru%20UNCOLOR%20RUS%200.pdf)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.03.2023 yildagi PF-45-son "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, bazaviy hisoblash miqdori 330 ming so'mni tashkil qiladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksi, <https://lex.uz/docs/97664>

6. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.08.2022 yildagi 486-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, <https://lex.uz/docs/6179643>

8. Ushbu raqamga nogironligi mavjud shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va "Ishga marhamat" monomarkazlari ham kiradi.

АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИ ҲОЛАТИНИНГ ТАЪЛИЛИ

Абдуллаева Ситора

Ш.Рашидов номидаги СамДУ 1-босқич магистри

Бугунги кунда республикада олий таълим тизимини ривожлантириш, олий таълим муассасалари илмий салоҳиятини мустаҳкамлаш, фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини кучайтириш, илмий-тадқиқот фаолияти самарадорлигига эришиш, таълим сифатини оширишнинг муҳим омили ҳисобланган олий таълим муассасалари ресурс салоҳиятини ривожлантириш ва рақобатбардошлигини оширишга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномасида «... аввало таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим» деб[2] таъкидлаганлар.